

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR HARBIY XIZMATCHILARNING EMPATIK SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ROLI.

Toshmatov Rustamjon Muydinjon o'g'li
Namangan pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola doirasida empatiyaning mohiyati, uning harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatidagi o'рни, shuningdek, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik qadriyatlarini shakllantirishda empatiyaga asoslangan ta'lim uslublarning samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, aksiologik yondashuv, bo'lajak harbiy xizmatchi, harbiy xizmat, jamoa, totuvlik, bag'rikenglik, baynalminal diniy erkinlik, tinchlik halollik, poklik.

Abstract: This article examines the essence of empathy, its role in the professional activities of military personnel, as well as the effectiveness of educational methods based on empathy in forming the values of interethnic harmony and tolerance.

Keywords: globalization, future military personnel, military service, community, harmony, tolerance, international religious freedom, peace, honesty, purity.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность эмпатии, ее роль в профессиональной деятельности военнослужащих, а также эффективность образовательных методов, основанных на эмпатии, в формировании ценностей межэтнического согласия и толерантности.

Ключевые слова: глобализация, будущий военнослужащий, военная служба, сообщество, гармония, толерантность, международная религиозная свобода, мир, честность, чистота,

Globallashuv sharoitida diniy bag'rikenglik, dinlararo totuvlik va hamkorlik jamiyatlarning tinchligi va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillar aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan inson qadriyatlari, e'tiqod erkinligi va o'zaro hurmat kabi fundamental qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Tarixan O'zbekiston turli madaniyatlar, tillar, urf-odatlar va dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar vatani bo'lib kelgan. Bu xususiyat mamlakatimizning ko'p madaniyatli va ko'p konfessiyali jamiyat sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. O'zbekiston

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 05. May 2025

Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Asrlar davomida xalqimiz umuminsoniy qadriyatlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan hamjihatlikda yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, boshqa xalqlarning ilg'or tajribasi va madaniyatini o'rganish kabi fazilatlar xalqimizga xos bo'lgan qadriyatlardir. Aksiologik nuqtai nazardan, diniy bag'rikenglik insonning e'tiqod erkinligi huquqini hurmat qilish, boshqa dinlarga nisbatan tolerantlik va o'zaro tushunishni anglatadi. Dinlararo totuvlik esa turli din vakillari o'rtasida tinchlik va hamkorlik muhitini yaratish, diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurashishni nazarda tutadi. O'zaro hamkorlik esa turli din vakillari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, umumiy muammolarni birgalikda hal etish va jamiyat rivojiga hissa qo'shishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlariga tayanib, diniy bag'rikenglik, dinlararo totuvlik va o'zaro hamkorlikni ta'minlash borasida izchil siyosat olib bormoqda. Mamlakatimizda barcha dinlarga teng huquqlar berilgan, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Ushbu siyosat natijasida O'zbekistonda turli din vakillari tinch-totuv hayot kechirmoqda va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan milliy madaniy markazlar (MMK) ushbu siyosatning amaliy ifodasidir. Dastlabki MMKlar koreys, qozoq, yahudiy va arman millat vakillari tashabbusi bilan 1989-yilda tashkil etilgan bo'lib, mustaqillik yillarida ularning soni keskin o'sdi. Hozirda O'zbekistonda 138 ta MMK faoliyat yuritmoqda. Bu esa, O'zbekiston davlati millatlararo totuvlikni ta'minlashga, madaniy xilma-xillikni saqlashga va har bir millat vakilining o'z madaniy ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratayotganligini ko'rsatadi..

Yurtimizda bugungi kunda xavfsizlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va strategik chora-tadbirlarning asosiy zamini O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topgan [1]. Ushbu strategiya doirasida, jamiyatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks vazifalar belgilangan bo'lib, bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning ustuvorligini tasdiqlaydi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglik nafaqat an'anaviy islomiy fazilat, balki samimiyat, ochiq muloqot, vijdon erkinligi va har bir insonning o'z e'tiqodiga

sodiq qolish huquqi kabi muhim tamoyillarga asoslangan. Shunday ekan, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash nafaqat ma'naviy burchimiz, balki barqaror va demokratik jamiyat qurish, huquqiy davlatni mustahkamlash, xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallash yo'lidagi muhim siyosiy va huquqiy ehtiyojimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] Farmoniga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari Qo'mitasi (Qo'mita) tashkil etildi. Hozirda Qo'mita qoshida 138 ta milliy madaniy markaz (MMK) faoliyat yuritadi, bu esa mamlakatda milliy madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bo'lajak harbiy xizmatchilar, ayniqsa, ushbu tamoyillarga sodiq bo'lishlari shart, chunki ularning zimmasiga Vatanimizning xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Empatiya – o'zgalarning his-tuyg'ularini tushunish va hamdardlik qilish qobiliyati bo'lib, turli millat vakillari bilan muloqotda bo'lishda, ular o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Empatiyaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi, milliy kelishmovchiliklarni bartaraf etishda, adolatli va xolis qarorlar qabul qilishda, o'z xizmat vazifasini samarali bajarishda ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Ayni paytda, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab kelishmoqda. Ularning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, an'ana hamda qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi va qadr topdi. Bo'lajak harbiy xizmatchilar ushbu merosni asrab-avaylashga, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishga o'z hissasini qo'shishlari darkor.

Empatiya — bu boshqalarning his-tuyg'ularini, fikrlarini va tajribalarini tushunish qobiliyatidir. Bu sohada o'zaro aloqa va hissiy bog'lanishning o'rni katta. Smitning ta'kidlashicha, tasavvur orqali biz "o'zimizni uning o'rniga qo'yamiz... go'yo uning tanasiga kirib, qandaydir ma'noda u bilan bir xil odamga aylanamiz". Tasavvur

yordamida biz odatda boshqa odamnikiga o'xshash, lekin odatda undan kuchsizroq bo'lgan sezgilarni boshdan kechiramiz [3]. Yana bir ta'sirchan empatiya tushunchasi, bir asrdan ko'proq vaqt o'tgach, Herbert Spencerning (1870) "Psixologiya Printsiplari" asarida paydo bo'ldi. Spencer, ko'plab turlarda, jumladan, insonlarda mavjud bo'lgan ijtimoiylik asosida o'z fikrini boshladi. Spencerning fikricha, turdoshlar bilan aloqada bo'lishga bo'lgan tendensiya, xususan o'zini himoya qilish sohasida, xavfsizlikni ta'minlash uchun moslashuvchanlik vazifasini bajaradi. Vaqt o'tishi bilan, bunday turlarda aloqada bo'lishdan qoniqish his qilish va ijtimoiy o'zaro ta'sirdan mahrum bo'lganda noxushlik his qilish rivojlandi, deb o'yladi. Bu hislar natijasida, bunday turlarda yuqori darajada ijtimoiy aloqa yuzaga keldi. Ushbu yuqori darajadagi ijtimoiy aloqa tufayli, empatiya takroriy aloqalar natijasida rivojlandi. Bo'lajak harbiy xizmatchilar uchun empatiya nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki guruh dinamikasi va millatlararo aloqalar o'rnatish uchun muhimdir.

Empatiya orqali millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlashda individual farqlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir harbiy xizmatchida empatiyaga oid jarayonlarda ishtirok etish yoki empatik natijalarni tajribaga ega bo'lish tendentsiyasi farq qiladi. Yillar davomida empatiya bilan bog'liq doimiy xususiyatlarni baholash maqsadida turli o'lchovlar ishlab chiqilgan (masalan, Davis, 1980; Hogan, 1969). Ushbu o'lchovlar shaxsning empatiyaga oid jarayonga ishtirok etish ehtimolini ta'sir qiluvchi barqaror xususiyatlarini ifodalaydi. Bo'lajak harbiy xizmatchilarda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik qadriyatlarini shakllantirishda empatiya muhim rol o'ynaydi. Empatiya nafaqat shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni kuchaytiradi, balki turli madaniyatlar va millatlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi. Buni amalga oshirish uchun, harbiy tayyorgarlik jarayonida empatiya va his-tuyg'ularni tushunishga qaratilgan treninglar va ta'lim dasturlari muhimdir.

Millatlararo totuvlik g'oyasi – sayyoramizda istiqomat qilayotgan 1600 dan ortiq etnik guruhlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik prinsiplari asosida tinch-totuv yashash idealidir. Bu g'oya nafaqat etnik xilma-xillikni e'tirof etishni, balki har bir millat vakillarining o'ziga xos madaniy merosini saqlab qolish va rivojlantirish uchun teng sharoitlar yaratishni ham nazarda tutadi. Millatlararo totuvlik, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, madaniy boyligini va innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bag'rikenglik (Tolerantlik) – ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida boshqa insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, xulq-atvori va odatlariga nisbatan sabr-

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**


Volume 02. Issue 05. May 2025

toqatli, hurmatli va tushunish bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Bag'rikenglik, boshqa odamlarning fikrlari va e'tiqodlari o'zimiznikidan farq qilgan taqdirda ham, ularni qabul qilish, tan olish va hurmat qilishni nazarda tutadi.

Harbiy xizmat sohasida millatlararo totuvlikni ta'minlashda empatiya muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan empatiya insoniy qadriyatlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, ularga hamdardlik bildirish va o'zaro hurmatni ifodalaydi. Harbiy xizmatchilar uchun empatiya nafaqat shaxsiy fazilat, balki kasbiy kompetensiya sifatida ham muhimdir. Empatiya harbiy xizmatchilarga turli madaniy va etnik kelib chiqishga ega bo'lgan odamlar bilan samarali muloqot qilish, ularning qadriyatlari va e'tiqodlarini tushunish va hurmat qilish imkonini beradi. Bu esa o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratishga, nizolarni oldini olishga va tinchlikni saqlashga xizmat qiladi. Aksiologik jihatdan empatiya rivojlangan harbiy xizmatchilar o'z xizmat vazifalarini bajarishda adolatli va xolis bo'ladilar, inson huquqlarini hurmat qiladilar va boshqalarga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'ladilar. Ular turli madaniyat va din vakillari bilan muloqotda madaniy sezgirlikni namoyon etadilar va stereotiplardan qochadilar. Shuning uchun ham bo'lajak harbiy xizmatchilarni tayyorlashda empatiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun rolli o'yinlar va simulyatsiyalar, muhokama va munozaralar, adabiyot va san'at, o'z-o'zini anglash va refleksiya kabi usullar qo'llanilishi mumkin. Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar orqali kursantlar turli millat vakillari bilan muloqot qilish vaziyatlarini modellashtirishlari va empatiya ko'nikmalarini amalda qo'llashlari mumkin. Turli madaniyat va qadriyatlar haqida muhokama qilish orqali kursantlarda bag'rikenglik va o'zaro tushunishni rivojlantirish mumkin. Badiiy asarlar va filmlar orqali kursantlar boshqa madaniyatlar bilan tanishishlari va ularga nisbatan empatiya hissiyotlarini rivojlantirishlari mumkin. Kursantlar o'zlarining qadriyatlari, e'tiqodlari va xurofotlarini anglashlari va ularning boshqalarga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilishlari kerak. Xulosa qilib aytganda, empatiya harbiy xizmatchilar uchun muhim kasbiy ko'nikma bo'lib, millatlararo totuvlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Empatiyani rivojlantirish bo'lajak harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lishi va ularning xizmat faoliyati davomida ham takomillashtirib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning
2. O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017.
3. Empathy: A Social Psychological Approach, Mark H. Davis



**Research Science and
Innovation House**